

O'RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Soliqlar va soliqqa tortish fanining talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo'llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me'yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko'nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me'yoriy asoslar

1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **"Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Soliq tizimi

1. Soliq tizimi va qonunchiligi;
2. Soliq siyosati;
3. Soliq imtiyozlari;
4. Tovar va xizmatlar aylanmasiga soliq solish;
5. Soliq nazorati to'g'risidagi umumiy qoidalar. Soliq nazorati shakllari va soliq tekshiruvi turlari;
6. Soliq to'lovchilarni soliq solish obyekti bo'yicha hisobga qo'yish;
7. Soliq nazorati to'g'risidagi umumiy qoidalar. Soliq to'lovchilarini qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari sifatida maxsus ro'yxatdan o'tkazish tartibi.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Soliq tizimi va qonunchiligi	Soliqlarning iqtisodiy mohiyati, soliqlarning turlari va funksiyalari, soliq munosabatlari subyektlarini biladi. Soliq tizimining tarkibi, soliq qonunchiligidan huquqiy asoslarini, soliq qonunchiligi prinsiplarini, soliq to'lovchilarning huquqlari va majburiyatlari haqida bilimlarga ega bo'lishi lozim.	37,5 %	15 ta
2	Soliq siyosati	Soliq siyosatining tarkibi, soliq siyosatining xususiyatlari, soliq siyosati konsepsiyasi va strategiyasi, soliq siyosatining ustuvor yo'nalishlari haqida bilimlarga ega bo'lishi lozim.	20 %	8 ta
3	Soliq imtiyozlari	Soliq to'lovchilar faoliyatini davlat tomonidan rag'batlantirish mexanizmi, soliq imtiyozlari, soliq preferensiyalari, soliq imtiyozlarini taqdim etish yo'nalishlari haqida bilimlarga ega bo'lishi lozim.	5 %	2 ta
4	Tovar va xizmatlar aylanmasiga soliq solish	Tovar va xizmatlar aylanmasiga soliq solish, qo'shilgan qiymat solig'ining qo'llanilishi, soliq solish obyekti va bazasini shakllanishi haqida bilimlarga ega bo'lishi lozim.	5 %	2 ta
5	Soliq nazorati to'g'risidagi umumiy qoidalar. Soliq nazorati shakllari va soliq tekshiruvi turlari	Soliq nazorati bo'yicha belgilangan umumiy qoidalar, organlar, muassasalar va tashkilotlarning soliq organlariga ma'lumotlar taqdim etish majburiyatlari, banklarning soliq nazoratini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan majburiyatlarini, soliq nazorati shakllari va soliq tekshiruvi turlari haqida bilimlarga ega bo'lishi lozim.	5 %	2 ta
6	Soliq to'lovchilarni soliq solish obyekti bo'yicha hisobga qo'yish	Soliq to'lovchilarni va soliq solish obyektlarini hisobga olishni, soliq to'lovchilarni soliq solish obyekti bo'yicha hisobga qo'yishni, organlar, muassasalar va tashkilotlarning soliq organlariga ma'lumotlar taqdim etish majburiyatlarini, soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog'liq obyektlarni aniqlashni, soliq solish obyektlari hisobini yuritish va tashqi manba ma'lumotlari asosida taqqoslashni, soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog'liq	15 %	6 ta

		obyektlari haqidagi ma'lumotlarni bazaga kiritish va shaxsiy hisob varaqalarini yuritish tartibi haqida bilimlarga ega bo'lishi lozim.		
7	Soliq nazorati to'g'risidagi umumiy qoidalar. Soliq to'lovchilarini qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari sifatida maxsus ro'yxatdan o'tkazish tartibi	Soliq nazorati to'g'risidagi umumiy qoidalar, soliq tekshiruvlarini, soliq nazorati shakllari, tashkil etishning huquqiy asoslari va tartiblarini, soliq monitoringi haqida va uni o'tkazishni, soliq tekshiruvlari, soliq tekshiruvi turlarini, kameral soliq tekshiruvi va uni o'tkazish tartibi, tekshiruv hujjatlarini rasmiylashtirishni, sayyor soliq tekshiruvi va uni o'tkazish tartibi, tekshiruv hujjatlarini rasmiylashtirishni, audit soliq tekshiruvi va uni o'tkazish tartibi, tekshiruv hujjatlarini rasmiylashtirishni biladi. Tekshirishga oid hujjatlarni axborot tizimlari orqali yuritish va hisobga olishni, O'zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobi, soliqlar va majburiy to'lovlar, fuqarolik, mehnat va bojxona qonunchiligini o'rganishni, qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilarini soliq organlarida qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha hisobga olish tartibini, qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi majburiy bo'lishi lozim bo'lgan shaxslarni maxsus ro'yxatdan o'tkazishni, soliq to'lovchilarni ixtiyoriy ro'yxatdan o'tkazish tartibi haqida bilimlarga ega bo'lishi lozim.	12,5 %	5 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarini eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	30 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	57,5 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	12,5 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 30.04.2023 (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi - Lex.uz)
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi 30.12.2019 (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi - Lex.uz);
3. O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonuni(1997 yil 29 avgust), (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi - Lex.uz).
4. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 30.12.2019 (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi - Lex.uz);

4. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining soliq kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-891 sonli Qonuni 28.12.2023 (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi - Lex.uz);

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, 07.01.2021 yildagi 1-sonli “Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to‘lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori.

6. Q.N.To‘xsanov, D.B.Abdusattorova. Soliqqa kirish. Darslik. - T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021 — 246 b. (Ushbu kitob universitet ARMda mavjud).

7. Pasquale Pistone et al. Fundamentals of Taxation. An Introduction to Tax Policy, Tax Law and Tax Administration July 2019. Print book. (Ushbu kitob universitet ARMda PDF variantda mavjud).

8. Coleman et al, New Zealand Taxation 2020: Principles, Cases and Questions, Thomson Reuters, Wellington NZ. (Ushbu kitob universitet ARMda PDF variantda mavjud).

9. William D. Popkin, Introduction to Taxation 6th Edition, Kindle Edition. (Ushbu kitob universitet ARMda PDF variantda mavjud)

10. Introduction to European Tax Law: Direct Taxation, Edited by Michael Lang. (Ushbu kitob universitet ARMda PDF variantda mavjud)